

Abdullayeva Zarina Xakimjonovna

Xalqaro Nordik Universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Xalqaro Nordik Universiteti

“Psixologiya va maktabgacha ta’lim kafedrasi” o’qituvchisi

Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING ESTETIK DIDI RIVOJLANISHIDAGI O’ZIGA XOS HUSUSIYATLARI.

ANNOTATSIYA: Mazkur ishda maktabgacha yoshdagi bolalarining estetik didi rivojlanishining o'ziga xos hususiyatlari ko'rib chiqilgan. Maktabgacha yosh (3-6 yosh) bolalar uchun estetik didning shakllanishi juda muhim bo'lib, bu davrda bolalar go'zallikni, san'atni, ranglarni va tabiatni sezish orqali o'zlarining hissiy va intellektual rivojlanishini amalga oshiradilar. Estetik didning rivojlanishi bolalarining ranglar va shakllarga nisbatan munosabatlari, san'at asarlariga reaksiyalari, ijodiy qobiliyatlari va tabiatga bo'lgan qiziqishlari orqali namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon bolalar uchun go'zallikni anglash, san'at va madaniyatga bo'lgan hurmatni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarining estetik qobiliyatlari va didining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, xususiyatlari tahlil qilinadi.

KALIT SO’ZLAR: Estetik did, rivojlanish, san'at, go'zallik, ranglar, shakllar, tabiat, ijodiy qobiliyat, hissiy rivojlanish, estetik qabul qilish, kreativlik, tashqi omillar, emotsiyonal reaksiyalar

ANNOTATION: In this work, the specific features of the development of the aesthetic taste of preschool children are considered. The formation of aesthetic taste is very important for preschool children (3-6 years old), during this period, children realize their emotional and intellectual development by perceiving beauty, art, colors and nature. The development of aesthetic taste is manifested through children's attitudes towards colors and shapes, reactions to works of art, creative abilities and

interest in nature. This process helps to form children's sense of beauty, respect for art and culture. Factors and characteristics affecting the development of children's aesthetic abilities and taste are analyzed.

KEYWORDS: Aesthetic taste, development, art, beauty, colors, forms, nature, creative ability, emotional development, aesthetic perception, creativity, external factors, emotional reactions

АННОТАЦИЯ: В данной работе рассматриваются особенности развития эстетического вкуса детей дошкольного возраста. Формирование эстетического вкуса очень важно для детей дошкольного возраста (3-6 лет), в этот период дети реализуют свое эмоциональное и интеллектуальное развитие, воспринимая красоту, искусство, цвета и природу. Развитие эстетического вкуса проявляется через отношение детей к цветам и формам, реакции на произведения искусства, творческие способности и интерес к природе. Этот процесс способствует формированию у детей чувства красоты, уважения к искусству и культуре. Анализируются факторы и особенности, влияющие на развитие эстетических способностей и вкуса детей.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Эстетический вкус, развитие, искусство, красота, цвета, формы, природа, творческие способности, эмоциональное развитие, эстетическое восприятие, творчество, внешние факторы, эмоциональные реакции.

KIRISH: Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik didi rivojlanishi, ularning shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Estetik did, bolalarning go'zallikni tushunishi, san'atni qabul qilishlari va turli xil jismoniy va ruhiy tajribalardan kelib chiqqan estetik qadriyatlaridir. Ushbu jarayon maktabgacha ta'lim tizimida, ayniqsa, san'atga oid faoliyatlarda, bolalarga go'zallik, ranglar, shakllar va tovushlarni anglash imkoniyatini beradi.

ASOSIY QISM: Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik didi rivojlanishining o'ziga xos hususiyatlarini quyidagicha ko'rib chiqish mumkin:

Estetik didning shakllanishining boshlang'ich davri: Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik didi avvalo oyla davrasida, maktabgacha ta'lif tashkilotlarida shakllanib boradi. Bu davrda bolalar, ko'pincha, ranglar, tovushlar va shakllarga o'z munosabatini ko'rsata boshlaydi. Ular tabiatdagi go'zallikni sezishadi, ya'ni yomg'ir, quyosh, shamol yoki gullarning ranglarini kuzatishadi. Shuningdek, bolalar musiqa va raqsga ham qiziqish bildirishadi, bu esa ularning estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi.

San'at va tasviriy faoliyatning o'rni: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tasviriy san'at (rasm chizish, model yasash, ranglash) katta ahamiyatga ega. Bu faoliyatlar bolalarning estetik didini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Rasm chizish, qum bilan o'ynash, loydan turli shakllar yasash kabi mashg'ulotlar bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifodalash, ranglar bilan ishlashni o'rganish va ularning go'zallikni anglash qobiliyatini oshirish imkoniyatini beradi. Bolalar o'zlarining badiiy didlarini ifodalashda ijodiy yondoshuvlarni amalga oshiradilar.

Musiqa va ritmnning ta'siri: Musiqa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun katta ahamiyatga ega, chunki musiqa orqali ular tovushlarni, ritmni va melodiyani anglashni o'rganadilar. Musiqa bolalarning estetik sezgirligini oshiradi, hissiy reaksiya berish qobiliyatini rivojlantiradi va go'zallikni tushunishlarini chuqurlashtiradi. Bolalar musiqa tinglashda yoki ijro etishda, masalan, qo'shiqlarni aytishda, ularning didi va sezgilari yaxshilanadi.

Musiqa bolalarning kayfiyatini ko'taradi ertalabki badan tarbiyada ham buni yaqol ko'rish mumkin musiqa yangray boshlaganda bolalar ko'zlarida quvonch bilan ertalabki badan tarbiyani boshlashadi. Musiqa sadolari ostida o'zgacha zavqu-shavq bilan bajarishadi. Kun davomida yaxshi kayfiyatda yurishadi. Bolalar bilan ekskursiyalar, sayr va o'yinlar tashkil qilish vaqtlarida ham o'zimizning milliy ashulalar qo'shiqlar ijro etilishi ham kerak, bu bolalarni yanada bir-biriga yaqinlashtiradi, ruhini ko'taradi, estetik did ya'nada rivojlanadi. Maydonchada mehnat qilish jarayonida ijro etilgan ashula harakat ritmini uyg'unlashtiradi, bolalarga mehnat quvonchini bag'ishlaydi. Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi

uchun ularni haqiqiy san'at asarlari bilan tanishtirish zarur. Radio, oynai jahonda san'at ustalari va tengdoshlari ijro etgan asarlar bolalarning estetik rivojlanishida katta yordam beradi.

Ko'rish va tasavvur qilish: Estetik didning rivojlanishida bolalarning ko'rish va tasavvur qilish qobiliyati ham muhim o'rinni tutadi. Bolalar, shuningdek, shakllar va ranglarni sezish orqali estetik tasavvurlarni shakllantiradilar. Ular, misol uchun, ranglar va kompozitsiyalarni farqlashga o'rganadilar, shuningdek, badiiy asarlarni kuzatishda o'z hissiyotlarini izhor etadilar. Bu jarayon bolalarning badiiy didini oshiradi va ularni ijodkorlikka undaydi. Bolalar bilan tabiatni kuzatkanda ham har bir bola o'ziga turlich zavq ola boshlaydi. Ularga kim nimani ko'ryabdi? degan savol bilan murojat etsayiz ulardan bir-biridan qiziqarli javoblar eshitishingiz aniq. O'lkamizning to'rt fasli ham benihoya go'zal va ko'rkmak har bir fasil o'ziga xos qaytarilmas beباho onlarni hadiya etadi. Bu albatta bolalarga o'zgacha zavq va estetik bahsh etadi.

Ijodiy o'yin va drama faoliyatining roli: Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun ijodiy o'yin va drama faoliyatları estetik didning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalar o'zlarini turli xarakterlarda ko'rsatib, o'yin orqali hayotiy vaziyatlarni, ko'pincha go'zallik va estetik qadriyatlarni tasavvur qilishadi. Bu o'yinlarda bolalar yangi dunyolarni kashf etib, o'z ichki tuyg'ularini ifodalaydilar. Maktabgacha yoshda bolalar hissiy va emotsiyonal jihatdan faol rivojlanadilar. Ularning his-tuyg'ulari ko'pincha estetik qiziqishlar bilan bog'liq bo'ladi. Go'zallikni, qiziqarli shakllarni yoki hayajonli tovushlarni ko'rish yoki eshitish bolalarda kuchli hissiy reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa, bolalarda estetik didning rivojlanishiga yordam beradi.

Rang va kompozitsiya sezgisi: Maktabgacha yoshdagagi bolalar ranglarning turli rangdagi kombinatsiyalarini va shakllarning bir-biriga qanday mos kelishini o'rganadilar. Bolalar, ayniqsa, ranglarning chiroyligini va uyg'unligini anglash orqali, o'z didlarini shakllantiradilar. Maktabgacha yoshdagagi bolalar, asosan, o'zlarining sezgilarini (ko'rish, eshitish, tutish, hidlash) asosida dunyonni o'rganadilar.

Ular uchun estetik tajribalar (ranglar, shakllar, tovushlar) muhim o'rin tutadi. Ranglar, shakllar va tovushlarning birlashuvi bolalarda jozibadorlik, go'zallik va xushyoqish tuyg'ularini yuzaga keltiradi. Masalan, ranglar va shakllar bilan tajriba qilish ularning estetik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bolalar o'yinlar orqali o'zlarining estetik didlarini shakllantiradilar. O'yinlar orqali ularga ranglar, shakllar, kompozitsiyalarni tanib olish va ularni yaratilish jarayonida qo'llash imkoniyati yaratiladi. Bu faoliyatlar ularning estetik didining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijodiy faoliyatlar, masalan, rasm chizish, plastilindan shakllar yasash, bolalarga nafaqat estetik qiziqish, balki shakl va ranglarni idrok qilish ko'nikmasini ham rivojlantiradi.

Tarbiyaviy omillar: Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik didi, shuningdek, oilaviy muhit va tarbiyaviy ta'sirlar orqali ham shakllanadi. Oila a'zolari bolalarga go'zallikni anglashda va uning qiymatini tushunishda katta yordam beradi. Masalan, ota-onalarga bolalarga badiiy asarlarni ko'rsatib, san'at asarlariga e'tibor qaratishlari mumkin. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalarida ham estetik tarbiya amalga oshiriladi. Tarbiyachilar bolalarga san'atni sevdirish va ularni estetik tushunchalar bilan tanishtirishda katta o'rinni tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining oila a'zolari, do'stlari va tarbiyachilaridan estetik ta'sir olishadi. Ularning kuzatishlari, oila a'zolari yoki boshqa kattalarning estetik qadr-qimmatlarini qanday baholashlari, san'at va madaniyatga nisbatan munosabatlari bolalarning estetik didining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar bolalarga musiqa tinglash, teatr yoki rasm galereyasiga borish orqali estetik ta'sir ko'rsatishlari mumkin. Maktabgacha yoshda bolalar hissiy va emotsiyal jihatdan faol rivojlanadilar. Ularning his-tuyg'ulari ko'pincha estetik qiziqishlar bilan bog'liq bo'ladi. Go'zallikni, qiziqarli shakllarni yoki hayajonli tovushlarni ko'rish yoki eshitish bolalarda kuchli hissiy reaktsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa, bolalarda estetik didning rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar o'zlarining estetik didlarini rivojlantirgan sari, ular ijodiy va qiziqarli faoliyatlarga ko'proq jalgan bo'ladilar. Ranglar, shakllar va tovushlar bilan o'ynash bolalarni yaratish va yangi g'oyalarni ishlab chiqishga ilhomlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik

qiziqishlar, ular biror bir san'at asari yoki ijodiy jarayonni yaratishda o'zini ko'rsatishga intilishlariga yordam beradi.

XULOSA: Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik didi rivojlanishi, ularning hissiy, ijodiy va badiiy qobiliyatlarini oshiradi. Bu jarayon o'yin, san'at, musiqa va ijodiy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Estetik didning shakllanishi nafaqat bolalarning go'zallikni tushunishiga, balki ularning shaxsiyati va dunyoqarashining kengayishiga ham yordam beradi. Shu sababli, maktabgacha ta'lilda estetik tarbiya muhim o'rinni tutadi va bolalarning estetik sezgilari, badiiy tafakkuri va ijodkorligi rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna - TOSHKENT 2022 - *Maktabgacha pedagogika oquv qo'llanma* 68-73
2. Tosheva Nurzoda Toshtemirovna, "KAMOLOT" nashriyoti BUXORO - 2022."Maktabgacha ta'limga tarbiyani tashkil etish" VIII.6. 151-154
3. B.U. Axmedov, & D.Yu. Xoliqova (2022). MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING ESTETIK DIDI RIVOJLANISHIDAGI O`ZIGA XOS XUSUSIYATLAR. Ученый XXI века, (3 (84)), 38-39.
4. Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi Xalqaro Nordik universiteti "Psixologiya va maktabgacha ta'limga kafedrasini" o'qituvchisi. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA RAHBAR ETIKASI VA ESTETIKASINING BOSHQARUVDAGI O'RNI. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564351>